**KASBIY STANDART**

**Quyosh energiyasi qurilmalarini montaj qilish, xizmat koʻrsatish va taʼmirlash boʻyicha texniklar**

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami: QR kod

## I. Umumiy maʼlumotlar

1. Ushbu kasbiy standart “Quyosh panellarini oʻrnatish va texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha chilangar”, “Quyosh qurilmalari montajchisi” va “Quyosh energiyasi boʻyicha texnik” kasblari boʻyicha mehnat faoliyatini tartibga solish, taʼlim dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, xodimlarning kasbiy malakalarini rivojlantirish hamda baholash jarayonlarini amalga oshirishda qoʻllaniladi. Shuningdek, mazkur standart tashkilotlarda kadrlar boshqaruvi tizimini takomillashtirish, mehnat vazifalarini belgilash, malaka talablarini aniqlash va sertifikatlash ishlarini amalga oshirishda asosiy meʼyoriy manba sifatida xizmat qiladi.

2. Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qoʻllaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur boʻladigan, oʻrganilgan va oʻzlashtirilgan maʼlumotlar;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun moʻljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat koʻrsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal taʼlim – aniq maqsadga yoʻnaltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy taʼlimdan koʻra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi oʻquv faoliyatini oʻz ichiga olgan taʼlim shakli;

norasmiy taʼlim – taʼlim xizmatlari taqdim etilishini taʼminlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida oʻqitishdagi rasmiy taʼlimga qoʻshimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

kasb – koʻnikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi;

kasb kartasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qoʻyiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni oʻz ichiga olgan muayyan kasb toʻgʻrisidagi

LOYIHA

tizimlashtirilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida zarur bilim, mahorat, ko‘nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart-sharoitlari, ishga munosabat va xulq-atvorga qo‘yilgan minimal talablarni belgilaydigan hujjat;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo‘yicha tizimlashtirilgan ro‘yxati;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo‘lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo‘llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

ko‘nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar majmuasi bo‘lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning tayyorgarligi va ko‘nikmalari darajasi bo‘yicha mehnat funksiyalarining murakkabligi, ularni mustaqil bajarish va natijalarga mas’uliyati parametrlari bo‘yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

mehnat funksiyasi – mehnat natijasiga erishishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq mehnat harakatlari majmuasi;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta’sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat faoliyati turi – kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi bo‘lib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarning yaxlit majmuasini ifoda etadi;

rasmiy ta’lim – davlat tomonidan tan olingan davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejali ta’lim;

Ishchi (ekspert) guruhi – bu kasbiy standartni ishlab chiqish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida ishtirok etuvchi, sohaviy bilim va tajribaga ega mutaxassislardan tashkil topgan guruh.

LOYIHA

Zaxira quvvat (rezerv quvvat) – asosiy manbada uzilish yuz berganda energiya ta'minotini davom ettirish uchun mo'ljallangan qo'shimcha quvvat.

Avariya holati – elektr tarmog'i yoki stansiyada uskunalar ishdan chiqishi, qisqa tutashuv, kuchlanish pasayishi yoki uzilishlar bilan bog'liq holat;

Qisqa tutashuv – elektr zanjirida to'g'ridan-to'g'ri kontakt yuzaga kelib, katta tok oqimiga sabab bo'ladigan nosozlik.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-fevraldagi qarori "Elektr energetika tarmog'ini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–4191-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-apreldagi "Energetika tarmog'ida malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" VMQ-244-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta'minotini tashkil etish sohasini tartibga solish va rivojlantirish to'g'risida"gi VMQ-13-son qarori;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi 2.1-tahriri;

SHHV – Shaxsiy himoya vositalari.

LOYIHA

# II. Kasbiy standartning pasporti

<table>
<tr><td>1.</td><td>Kasbiy standartning nomi:</td><td colspan="2">Quyosh energiyasi qurilmalarini montaj qilish, xizmat koʻrsatish va taʼmirlash boʻyicha texniklar</td></tr>
<tr><td>2.</td><td>Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:</td><td colspan="2">Quyosh fotoelektrik tizimlarini yuqori sifat darajasida oʻrnatish, ularning samarali va barqaror ishlashini taʼminlash, texnik xizmat koʻrsatish va taʼmirlash ishlarini amalga oshirish, shuningdek tizimlarni xavfsizlik va sifat standartlariga muvofiq sinovdan oʻtkazish orqali energiya taʼminotining ishonchliligini taʼminlash</td></tr>
<tr><td>4.</td><td>IFUT boʻyicha seksiya, boʻlim, guruh, sinf va kichik sinf</td><td colspan="2">D seksiyasi. Elektr, gaz va bugʻ taʼminoti va havoni konditsiyalash;<br>35- Elektr, gaz va bugʻ taʼminoti va havoni konditsiyalash;<br>35.1- Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash;<br>35.12-Qayta tiklanadigan manbalardan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish;<br>35.12.2-Quyosh elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish</td></tr>
<tr><td>5.</td><td>Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:</td><td colspan="2">Energetika tarmogʻining qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasiga tegishli boʻlib, quyosh fotoelektrik tizimlarini oʻrnatish, ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat koʻrsatish ishlarini amalga oshiruvchi mutaxassislarning mehnat faoliyatini tartibga solish, shuningdek, sohadagi kasbiy faoliyatni meʼyorlashtirish, malaka talablarini belgilash, taʼlim dasturlarini shakllantirish va malakani baholash tizimlarida yagona yondashuvni taʼminlash</td></tr>
<tr><td rowspan="4">6.</td><td rowspan="4">Qamrab olinadigan kasblar roʻyxati va malaka darajasi:</td><td>Kasblar kodi va nomi:</td><td>TMR dagi malaka darajasi:</td></tr>
<tr><td>72335026 Quyosh panellarini oʻrnatish va texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha chilangar</td><td>3</td></tr>
<tr><td>74110015 Quyosh qurilmalari montajchisi</td><td>3</td></tr>
<tr><td>31134001 Quyosh energiyasi boʻyicha texnik</td><td>5</td></tr>
</table>

## III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

| Kasblar | | Mehnat funksiyalari | | Mehnat vazifalari | |
|---|---|---|---|---|---|
| № | Kodi va nomi | Kodi | Nomi | Kodi | Nomi |
| 1 | 72335026 Quyosh panellarini oʻrnatish va texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha chilangar | A1.3 | Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta’minlash | A1.01.3 | Balandlikda ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish |
| | | | | A1.02.3 | Quyosh elektr qurilmalari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish |
| | | | | A1.03.3 | Texnik hujjatlarni, hisobotlarni, materiallarning spetsifikatsiyalarini, joylashish rejalarini va elektr sxemalarni yuritish |
| | | A2.3 | Quyosh energiyasi qurilmalarini oʻrnatish va montaj qilish | A2.01.3 | Quyosh panellarni va ularning pastki tuzilmalarini oʻrnatish, maxsus mahkamlagichlar yordamida mahkamlash |
| | | | | A2.02.3 | Elektr komponentlarini toʻgʻri oʻrnatish, simni yerga ulash va integratsiya qilish talablariga rioya qilish |
| | | A3.3 | Quyosh energiyasi qurilmalariga texnik xizmat koʻrsatish | A3.01.3 | Montaj ishlariga tayyorgarlik |
| | | | | A3.02.3 | Tizimga kompleks texnik va servis xizmat koʻrsatish |
| | | | | A3.03.3 | Uskunalarni almashtirish va ta’mirlash, kalibrlash |
| 2 | 74110015 Quyosh qurilmalari montajchisi | B1.3 | Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta’minlash | B1.01.3 | Balandlikda ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish |
| | | | | B1.02.3 | Quyosh elektr qurilmalari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish |
| | | | | B1.03.3 | Texnik hujjatlarni, hisobotlarni, materiallarning spetsifikatsiyalarini, joylashish rejalarini va elektr sxemalarni yuritish |
| | | B2.3 | Quyosh energiyasi qurilmalarini oʻrnatish va montaj qilish | B2.01.3 | Quyosh uskunalarini oʻrnatish uchun joy sharoitlarini dastlabki tekshirish va tahlil qilish |
| | | B3.3 | | B3.01.3 | Texnik xizmat koʻrsatishni rejalashtirish |

LOYIHA

| Kasblar | | Mehnat funksiyalari | | Mehnat vazifalari | |
|---|---|---|---|---|---|
| **№** | **Kodi va nomi** | **Kodi** | **Nomi** | **Kodi** | **Nomi** |
| | | | Quyosh energiyasi qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish | B3.02.3 | Tekshirish ishlarini amalga oshirish |
| | | B4.3 | Quyosh energetik tizimlarini sinovdan o‘tkazish va ishga tushirish | B4.01.3 | Tizimni ekspluatatsiya uchun topshirish |
| | | | | B4.02.3 | Elektr tizimlarining o‘rnatilgan komponentlarining funksionalligi va xavfsizligini sinovdan o‘tkazish, natijalarni hujjatlashtirish |
| 3 | 31134001 Quyosh energiyasi bo‘yicha texnik | D1.5 | Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta’minlash | D1.01.5 | Balandlikda ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish |
| | | | | D1.02.5 | Quyosh fotoelektrik qurilmalari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish |
| | | | | D1.03.5 | Texnik hujjatlar, hisobotlar, materiallarning spetsifikatsiyalarini joylashish rejalari va elektr sxemalarni yuritish |
| | | D2.5 | Quyosh energiyasi qurilmalarini o‘rnatish va montaj qilish | D2.01.5 | Elektr komponentlarini to‘g‘ri montaj qilinishi, simning yerga ulanishi va integratsiya bo‘lishini nazorat qilish |
| | | D3.5 | Quyosh energiyasi qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish | D3.01.5 | Quyosh fotoelektrik uskunalari bilan ishlashda barqaror amaliyotga rioya qilish |
| | | D4.5 | Quyosh energiyasi tizimlarni sinovdan o‘tkazish va ishga tushirish | D4.01.5 | Elektr tizimlarining o‘rnatilgan komponentlarining funksionalligi va xavfsizligini sinovdan o‘tkazish |
| | | D5.5 | Quyosh uskunalar uzluksiz ishlashini monitoring qilish | D5.01.5 | Fotoelektrik panellar va boshqaruv tizimlaridan ma’lumotlarni yig‘ish |
| | | | | D5.02.5 | Og‘ishlarni aniqlash uchun to‘plangan ma’lumotlarni birlamchi tahlil qilish |

| Kasblar | | Mehnat funksiyalari | | Mehnat vazifalari | |
|---|---|---|---|---|---|
| № | Kodi va nomi | Kodi | Nomi | Kodi | Nomi |
| | | | | D5.03.5 | Quyosh fotoelektrik uskunalarining uzluksiz ishlashi bo‘yicha hujjatlarni yuritish |
| | | | | D5.04.5 | Quyosh fotoelektrik qurilmalarining uzluksiz ishlashini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda ishtirok etish |
| | | | | D5.05.5 | Uskunalarning uzluksiz ishlashini ta’minlash va favqulodda avariya vaziyatlari to‘g‘risida tezkor xabar berish |

LOYIHA

# IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

| | | |
|---|---|---|
| Kasbning nomi: | Quyosh panellarini oʻrnatish va texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha chilangar | |
| Mashgʻulot nomining kodi: | 72335 | |
| TMR boʻyicha malaka darajasi: | 3 | |
| Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar | Malakani baholash tavsiya etiladi | |
| Ish staji (amaliy tajriba)ga qoʻyilgan talablar: | Talab etilmaydi | |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar: | Jismoniy shaxslarning 18 yoshga toʻlgan boʻlishi;<br>Belgilangan talablar va muddatlarga rioya qilgan holda ish jarayonlarini sifatli hamda xavfsiz amalga oshirish;<br>Texnik va tashkiliy masalalarni tezkor hamda me’yoriy hujjatlar asosida hal etish;<br>Yangi texnologiyalar va ilgʻor usullarni oʻzlashtirishga intilish;<br>Jamoaviy ishda faol ishtirok etish, kasbiy muloqot madaniyatiga rioya qilish;<br>Oʻzaro hurmat va samarali hamkorlik muhitini saqlash;<br>Malakasini doimiy ravishda oshirish va amaliyotda qoʻllash. | |
| Ta’lim darajasiga qoʻyilgan talablar: | 1) boshlangʻich professional ta’lim<br>2) oʻrta maxsus ta’lim | |
| Norasmiy va informal ta’lim bilan bogʻliqligi: | umumiy oʻrta ta’lim+norasmiy (informal) ta’lim yoki amaliy tajriba | |
| Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi: | – | |
| Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari: | 74110013-Quyosh fotoelektrik tizimlari oʻrnatuvchisi | |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | **TMR boʻyicha malaka darajasi:** | **Kasbning nomi:** |
| | 7 | Gidro- issiqlik, atom, shamol, quyosh elektr stansiyalar direktori (boshligʻi) |
| | 6 | Quyosh energetikasi muhandisi |
| | 3 | Quyosh qurilmalari montajchisi |

LOYIHA

| Mehnat funksiyalarining tavsifi | | |
|---|---|---|
| **Kodi va nomi** | **Mehnat vazifalari** | |
| A1.3 Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta’minlash | A1.01.3 Balandlikda ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish | **O‘qitish natijalari** |
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Ish joyida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar va qoidalarni o‘rganish va ularga rioya qilish |
| | | 2. Balandlikda ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha barcha talablarga rioya qilishni ta’minlash |
| | | 3. Balandlikdagi ish joyini xavfsizlik talablariga muvofiq tayyorlash, to‘siqlar va xavfsizlik tizimlarini o‘rnatish |
| | | 4. Balandlikda ishlaganda ishlatiladigan asbob-uskunalarning xavfsizligini va soz bo‘lishini ta’minlash uchun ularni muntazam ravishda tekshirish va ularga xizmat ko‘rsatish |
| | | 5. O‘tkazilgan instruktajlar, tekshiruvlar va xavfsizlikni ta’minlash choralari haqida hujjatlarni yuritish |
| | | 6. Xavfsizlik talablarining aniqlangan buzilishlariga tezkor chora ko‘rish va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish choralari |
| | | Balandlikda ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlari bilan tanishish va ularga rioya qilish |
| | | Shaxsiy himoya vositalaridan samarali foydalanish va sozligini tekshirish |
| | | Xavfsizlik talablariga muvofiq balandlikda ish joyini tayyorlash |
| | | Ish joyida xavfsizlik qoidalari va standartlariga rioya qilish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha me’yoriy hujjatlar va qoidalar |
| | | Shaxsiy himoya vositalarining ishlash tamoyillari |
| | | Balandlikda ishlarni bajarishda xavflarni baholash va boshqarish usullari |
| | | Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish qoidalari |
| | | Quyosh uskunalarni ekspluatatsiya qilish sohasida ish joyida xavfsizlik qoidalari va tartiblari |
| | | Og‘ir uskunalar va elektr tizimlari bilan xavfsiz ishlash tamoyillari |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | A1.02.3 Quyosh qurilmalari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Elektr jihozlar bilan ishlashga tegishli bo‘lgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha talablar va me’yorlar bilan tanishish |
| | | 2. Ish boshlanishidan oldin elektr uskunalarining yaroqliligini va to‘g‘ri ulanishini tekshirish |
| | | 3. Dielektrik qo‘lqoplar, gilamchalar va tutqichlari izolyatsiyalangan asboblar, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish |
| | | 4. Nosozliklarni aniqlash va avariya vaziyatlarining oldini olish uchun elektr jihozlarini muntazam tekshirish va sinovdan o‘tkazish |
| | | 6. Elektr jihozlar bilan ishlashda o‘tkazilgan tekshiruvlar, sinovlar va xavfsizlikni ta’minlash choralari haqidagi hujjatlarni yuritish |
| | | 7. Aniqlangan nosozliklarga tezkor bartaraf etish choralarini ko‘rish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish |
| | | Elektr uskunalar bilan ishlashda shaxsiy himoya vositalaridan samarali foydalanish |
| | | Elektr uskunalarining yaroqliligini va to‘g‘ri ulanishini tekshirish |
| | | Elektr uskunalarni muntazam tekshirish va sinovdan o‘tkazish |
| | | O‘tkazilgan tekshiruvlar va sinovdan o‘tkazishlar haqida hujjatlarni yuritish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha me’yoriy hujjatlar va qoidalar |
| | | Shaxsiy himoya vositalarining ishlash tamoyillari |
| | | Elektr jihozlari bilan ishlarni amalga oshirishda xavflarni baholash va boshqarish usullari |
| | | Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam asoslari va harakatlar |
| | | Quyosh fotoelektrik uskunalarni ekspluatatsiya qilish sohasida ish joyida xavfsizlik qoidalari va tartiblari |
| | | Og‘ir uskunalar va elektr tizimlari bilan xavfsiz ishlash qoidalari |
| | A1.03.3 Texnik hujjatlarni, hisobotlarni, materiallarning | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Texnik hujjatlarni, hisobotlarni, materiallarning spetsifikatsiyalarini, qurilmalarning joylashish rejalarini va elektr sxemalarni tayyorlash |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | spetsifikatsiyalarini, joylashish rejalarini va elektr sxemalarni yuritish | 2. Belgilangan tartiblar va me'yoriy talablarga muvofiq hujjatlarni ro'yxatga olish va arxivlash |
| | | 3. Texnik hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilganda ma'lumotlar yangilanishini ta'minlash |
| | | 4. Texnik hujjatlarning belgilangan standartlar, me'yorlar va texnik shartlarga muvofiqligini nazorat qilish |
| | | 5. Hujjatlar aylanish jarayonini unifikatsiyalash va soddalashtirish uchun hujjatlar shablonlarini ishlab chiqish va yangilash |
| | | **Ko'nikmalar:** |
| | | Texnik tahrirlash va hujjatlarni tayyorlash |
| | | Hujjatlar aylanishini tashkil etish va yuritish, arxivlash va hujjatlardan foydalanish |
| | | Texnik ma'lumotlar va axborotlar bilan ishlashda tafsilotlarga e'tiborlik va aniqlik |
| | | Turli bo'limlar va mutaxassislar bilan samarali muloqot |
| | | Ish natijalarini namoyish qilish uchun texnik hujjatlar va taqdimotlarni tayyorlash |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Energetika sohasida texnik hujjatlarning standartlari va normalari |
| | | Quyosh energetikasida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va materiallar |
| | | Texnik hujjatlarni formatlash, tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan talablar |
| | | Hujjatlarni boshqarish va arxivlash tamoyillari |
| | | Energetikada texnik hujjatlar masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar |
| | **Mas'uliyat va mustaqillik:** | O'z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik |
| | | Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish |
| A2.3 Quyosh energiyasi qurilmalarini o'rnatish va montaj qilish | A2.01.3 Quyosh panellarini va ularning pastki tuzilmalarini o'rnatish, maxsus mahkamlagichlar yordamida mahkamlash | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Ishlab chiqarish talablariga muvofiq fotoelektrik panellarni o'rnatish uchun kerakli komponentlarni joyida yig'ish va tayyorlash |
| | | 2. Loyiha hujjatlari va texnik talablarni hisobga olgan holda o'rnatish joyini belgilash |
| | | 3. Texnik shartlarga muvofiq qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalarni va mahkamlash elementlarini tomga yoki boshqa yuzaga mahkamlash |
| | | 4. Quyosh panellarni tayyorlangan o'rnatmalarga xavfsizlik talablari va loyiha hisob-kitoblariga muvofiq o'rnatish |
| | | 5. Quyosh panellari mahkamlanishining ishonchliligini daraja o'lchagich va o'lchov asboblari yordamida ularning gorizontalligini/og'ishishini tekshirish |
| | | **Ko'nikmalar:** |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | Quyosh panellarini montaj qilishda ishlatiladigan qo‘l va elektr asboblari bilan ishlash |
| | | Chizmalarni o‘qish |
| | | Belgilar qo‘yish va mahkamlagichlarni yuqori aniqlik bilan o‘rnatish |
| | | Quyosh panellarini mahkamlanish sifati va ishonchliligini tekshirish |
| | | Balandlikda ishlaganda va asbob-uskunalardan foydalanganda xavfsizlik texnikasiga rioya qilish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Quyosh panellari mahkamlash tizimlarining turlari va xususiyatlari |
| | | Quyosh panellarining ishlashi va tuzilishining asosiy tamoyillari |
| | | Quyosh panellari balandlikda ishlash uchun xavfsizlik talablari |
| | | Quyosh panellarining gorizontal va to‘g‘ri egilishini ta’minlash usullari |
| | | Quyosh energetik tizimlarini o‘rnatishni tartibga soluvchi me’yorlar va qoidalar |
| | A2.02.3 Elektr komponentlarini to‘g‘ri montaj qilish, simni yerga ulash va integratsiya bo‘lishini ta’minlash | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Obyektda montaj guruhlari ishini tashkil etish va muvofiqlashtirish |
| | | 2. Quyosh tizimning elektr komponentlarini o‘rnatish, yerga sim ulash va integratsiya qilish bo‘yicha texnik ko‘rsatmalar va tavsiyalar berish |
| | | 3. Montaj qilishda texnologik jarayonlar, me’yorlar va sifat standartlariga rioya etilishini nazorat qilish |
| | | 4. Elektr komponentlarining ulanishlarini, invertorlar, zaryad kontrollerlari va ulash kabellarining ulanishlarini tekshirish |
| | | 5. Simni yerga ulash jarayonini tashkil etish va tizimning elektr xavfsizligini ta’minlash |
| | | 6. Ishlarning borishi yuzasidan hujjatlarni yuritish va bajarilgan ishlar bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Texnik chizmalar, sxemalar va spetsifikatsiyalarni o‘qish va tushunish |
| | | Guruhlar ishini boshqarish va muvofiqlashtirish va bunda ishning yuqori sifatini ta’minlash |
| | | Texnik talablar va xavfsizlik standartlariga rioya qilish |
| | | Montaj vaqtida yuzaga keladigan texnik muammolarni tashxislash va hal qilish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Quyosh panellar va ular bilan bog‘liq elektr komponentlarning texnik xususiyatlari va ishlash tamoyillari |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | Quyosh tizimlarini montaj qilish va ekspluatatsiya qilishni tartibga soluvchi me’yorlar va standartlar |
| | | Elektr xavfsizligi talablari, yerga sim ulash va me’yordan yuqori kuchlanishdan himoya qilish qoidalari |
| | | Qurilish maydonchalarida ish jarayonini tashkil etish va texnika xavfsizligi usullari |
| | | Loyihani boshqarish va qurilish hujjatlarini yuritish usullari asoslari |
| | **Mas’uliyat va mustaqillik:** | O‘z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik |
| | | Zarur bo‘lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish |
| A3.3 Quyosh energiyasi uskunalariga texnik xizmat ko‘rsatish | A3.01.3 Montaj ishlariga tayyorgarlik | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Montaj ishlarini bajarish uchun zarur jihozlar, asboblar va materiallarni aniqlash |
| | | 2. Obyektga materiallar va uskunalarni yetkazib berish bo‘yicha logistikani tashkil etish |
| | | 3. Xizmat ko‘rsatish va o‘rnatish uchun ehtiyot qismlar va materiallarga bo‘lgan talabni aniqlash |
| | | 4. Uskunalarning va umuman tizimning haqiqiy holatini inobatga olgan holda xizmat ko‘rsatish rejalarini tuzish va sozlash |
| | | 5. Ishni boshlashdan oldin maydonchadagi potensial xavf va xavfsizlik sharoitlarini baholash |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Quyosh qurilmalarining texnik holatini tahlil qilish va texnik xizmat ko‘rsatishga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash |
| | | Resurs talablarini aniqlash |
| | | Montaj qilishga tayyorgarlik bilan bog‘liq xavflarni baholash va minimallashtirish |
| | | Bajarilgan ishlarni rejalashtirish va ular haqida hisobot tayyorlash |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Quyosh uskunalari va tizimlarining ishlash tamoyillari va texnik tavsiflari |
| | | Texnik xizmat ko‘rsatish va montaj ishlarini rejalashtirish va tashkil etish usullari |
| | | Quyosh energiya tizimlarini ekspluatatsiya qilish va ularga xizmat ko‘rsatish uchun me’yoriy talablar |
| | | Quyosh energetikasida montaj ishlarining texnologiyasi va ketma-ketligi |
| | | Ehtiyot qismlar va materiallarga buyurtma berish, qabul qilish va saqlash tartiblari |
| | A3.02.3 | **Mehnat harakatlari:** |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | Tizimga kompleks texnik va servis xizmat ko‘rsatish | 1.Ishlab chiqarish kalendariga va ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga muvofiq quyosh uskunalariga muntazam texnik va servis xizmati ko‘rsatilishini tashkil etish |
| | | 2.Quyosh panellar, invertorlar, mahkamlagichlar va boshqa tizim komponentlarining holatini ko‘zdan kechirish va diagnostika qilish |
| | | 3.Kerakli ishlarni bajarish, tozalash, eskirgan qismlarni almashtirish va uskunalarni sozlash |
| | | 4.Uskunalarning ishonchli ishlashini ta’minlash uchun ularga xizmat ko‘rsatilgandan keyin ularning funksionalligi va samaradorligini tekshirish |
| | | 5.Servis hujjatlarini, xizmat ko‘rsatishni hisobga olish jurnallari va bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarni to‘ldirish va yangilash |
| | | 6.Xizmat ko‘rsatish vaqtida xavfsizlik me’yorlari va standartlarga rioya qilinishini nazorat qilish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Uskunalarning holatini diagnostika qilish va texnik ishlarning hajmini aniqlash |
| | | Maxsus asboblar va jihozlardan foydalanish |
| | | Nosozliklarni tez va sifatli tuzatish va profilaktika ishlarini bajarish |
| | | Uskunalarga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash to‘g‘risida hujjatlarni yuritish, hisobotlar va jurnallarni to‘ldirish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Quyosh uskunalari, quyosh panellari, invertorlar va monitoring tizimlarining ishlash tamoyillari va texnik tavsiflari |
| | | Quyosh energiya tizimlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash usullari va texnologiyalari |
| | | Quyosh qurilmalarga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar va standartlar |
| | | Elektr jihozlari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari |
| | A3.03.3 Uskunalarni almashtirish va ta’mirlash, kalibrlash | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1.Uskunani kalibrlash, almashtirish va ta’mirlash zaruriyatini aniqlash |
| | | 2.Resurslarning ustuvorligi va mavjudligini hisobga olgan holda kalibrlash, almashtirish va ta’mirlash ishlarining rejalari va jadvallarini ishlab chiqish va tasdiqlash |
| | | 3.Profilaktik xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish, panellarni tozalash va panellar, elektr saqlagichlar va kabellar kabi shikastlangan qismlarni almashtirish va ta’mirlash |

| | | |
|---|---|---|
| | | 4. Kerakli ehtiyot qismlarga buyurtma berish va ta’mirlash ishlarini tashkil etish uchun yetkazib beruvchilar va servis xizmatlari bilan muvofiqlashtirish |
| | | 5. Rejalashtirilgan ishlarning bajarilishini monitoring qilish va belgilangan muddatlarga rioya qilish |
| | | 6. Standart usullar va uskunalar yordamida kalibrlashni tashkil etish |
| | | 7. Bajarilgan ishlar toʻgʻrisida hisobotlarni tayyorlash |
| | | **Koʻnikmalar:** |
| | | Uskunalarning texnik holatini tahlil qilish va kalibrlash, almashtirish hamda ta’mirlashga ehtiyojni aniqlash |
| | | Resurslardan foydalanishni optimallashtirish ish rejalari va jadvallarini ishlab chiqish |
| | | Ishlarning oʻz vaqtida bajarilishini ta’minlash uchun yetkazib beruvchilar va servis xizmatlari bilan oʻzaro aloqada boʻlish |
| | | Bajarilgan ishlarning sifatini nazorat qilish va standartlardan ogʻishishlar aniqlangan taqdirda choralar koʻrish |
| | | Ishlarni rejalashtirish va bajarish boʻyicha hujjatlar va hisobotlarni yuritish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Xizmat koʻrsatilayotgan uskunaning ishlash tamoyillari va texnik tavsiflari |
| | | Uskunalarni kalibrlash usullari va standartlari |
| | | Uskunaning tarkibiy qismlarini ta’mirlash va almashtirish tartiblari va texnologiyalari |
| | | Uskunalarga xizmat koʻrsatish va ta’mirlash boʻyicha me’yoriy talablar, xavfsizlik talablari |
| | | Ishlarni rejalashtirish va tashkil etish uchun zarur boʻlgan loyihalarni va resurslarni boshqarish asoslari |
| | **Mas’uliyat va mustaqillik:** | Oʻz harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik |
| | | Zarur boʻlganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish |
| **Texnik va/yoki texnologik talab** | | Qoʻl asboblari, elektr asboblar, oʻlchash va sinov uskunalari, yordamchi asboblar (narvonlar, SHHV), quyosh panellar uchun maxsus asboblar |

LOYIHA

| | |
|---|---|
| Kasbning nomi: | Quyosh qurilmalari montajchisi |
| Mashgʻulot nomining kodi: | 74110 |
| TMR boʻyicha malaka darajasi: | 3 |
| Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar | Malakani baholash tavsiya etiladi |
| Ish staji (amaliy tajriba)ga qoʻyilgan talablar: | Talab etilmaydi |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar: | Jismoniy shaxslarning 18 yoshga toʻlgan boʻlishi;<br>Ishlab chiqarish faoliyatiga xalaqit beradigan doimiy kasalliklar yoki nogironlik boʻlmasligi kerak.<br>Ish jarayonlarini sifatli hamda xavfsiz amalga oshirish;<br>Texnik va tashkiliy masalalarni tezkor hamda me’yoriy hujjatlar asosida hal etish;<br>Yangi texnologiyalar va ilgʻor usullarni oʻzlashtirishga intilish;<br>Jamoaviy ishda faol ishtirok etish, kasbiy muloqot madaniyatiga rioya qilish;<br>Oʻzaro hurmat va samarali hamkorlik muhitini saqlash;<br>Malakasini doimiy ravishda oshirish va amaliyotda qoʻllash. |
| Ta’lim darajasiga qoʻyilgan talablar: | 1) boshlangʻich professional ta’lim<br>2) oʻrta maxsus ta’lim |
| Norasmiy va informal ta’lim bilan bogʻliqligi: | umumiy oʻrta ta’lim+norasmiy (informal) ta’lim<br>yoki amaliy tajriba |
| Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi: | - |
| Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari: | - |

| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | **TMR boʻyicha malaka darajasi:** | **Kasbning nomi:** |
|---|---|---|
| | 7 | Gidro- issiqlik, atom, shamol, quyosh elektr stansiyalar direktori (boshligʻi) |
| | 6 | Quyosh energetikasi muhandisi |
| | 3 | Quyosh fotoelektrik tizimlari oʻrnatuvchisi |
| | 3 | Quyosh panellarini oʻrnatish va texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha chilangar |

**Mehnat funksiyalarining tavsifi**

| **Kodi va nomi** | **Mehnat vazifalari** | |
|---|---|---|
| | | **Oʻqitish natijalari** |
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| B1.3<br>Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta’minlash | B1.01.3<br>Balandlikda ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish | 1. Ish joyida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar va qoidalarni oʻrganish va ularga rioya qilish |
| | | 2. Balandlikda ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi boʻyicha barcha talablarga rioya qilishni ta’minlash |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | 3. Balandlikdagi ish joyini xavfsizlik talablariga muvofiq tayyorlash, to‘siqlar va xavfsizlik tizimlarini o‘rnatish |
| | | 4. Balandlikda ishlaganda ishlatiladigan asbob-uskunalarning xavfsizligini va soz bo‘lishini ta’minlash uchun ularni muntazam ravishda tekshirish va ularga xizmat ko‘rsatish |
| | | 5. O‘tkazilgan instruktajlar, tekshiruvlar va xavfsizlikni ta’minlash choralari haqida hujjatlarni yuritish |
| | | 6. Xavfsizlik talablarining aniqlangan buzilishlariga tezkor chora ko‘rish va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Balandlikda ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlari bilan tanishish va ularga rioya qilish |
| | | Shaxsiy himoya vositalaridan samarali foydalanish va sozligini tekshirish |
| | | Xavfsizlik talablariga muvofiq balandlikda ish joyini tayyorlash |
| | | Ish joyida xavfsizlik qoidalari va standartlariga rioya qilish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Mehnatni muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha me’yoriy hujjatlar va qoidalar |
| | | Shaxsiy himoya vositalarining ishlash tamoyillari |
| | | Balandlikda ishlarni bajarishda xavflarni baholash va boshqarish usullari |
| | | Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam asoslari va harakatlar |
| | | Quyosh uskunalarni ekspluatatsiya qilish sohasida ish joyida xavfsizlik qoidalari va tartiblari |
| | | Og‘ir uskunalar va elektr tizimlari bilan xavfsiz ishlash tamoyillari |
| | | **Mehnat harakatlari:** |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | B1.02.3 Quyosh qurilmalari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlariga rioya qilish | 1. Elektr jihozlar bilan ishlashga tegishli boʻlgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi boʻyicha talablar va me’yorlar bilan tanishish |
| | | 2. Ish boshlanishidan oldin elektr uskunalarining yaroqliligini va toʻgʻri ulanishini tekshirish |
| | | 3. Dielektrik qoʻlqoplar, gilamchalar va tutqichlari izolyatsiyalangan asboblar kabi shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish |
| | | 4. Nosozliklarni aniqlash va elektr jihozlarini muntazam tekshirish hamda sinovdan oʻtkazish |
| | | 5. Elektr jihozlar bilan ishlashda oʻtkazilgan tekshiruvlar, sinovlar va xavfsizlikni ta’minlash choralari haqidagi hujjatlarni yuritish |
| | | 6. Aniqlangan nosozliklarga tezkor chora koʻrish va ularni bartaraf etish choralarini koʻrish |
| | | **Koʻnikmalar:** |
| | | Elektr qurilmalar bilan ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari va me’yorlari bilan tanishish va ularga rioya qilish |
| | | Elektr uskunalar bilan ishlashda Shaxsiy himoya vositalaridan samarali foydalanish |
| | | Elektr uskunalarining yaroqliligini va toʻgʻri ulanishini tekshirish |
| | | Elektr uskunalarni muntazam tekshirish va sinovdan oʻtkazish |
| | | Oʻtkazilgan tekshiruvlar va sinovdan oʻtkazishlar haqida hujjatlarni yuritish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Mehnatni muhofazasi va xavfsizlik texnikasi boʻyicha me’yoriy hujjatlar va qoidalar |
| | | Shaxsiy himoya vositalarining ishlash tamoyillari |
| | | Elektr jihozlari bilan ishlarni amalga oshirishda xavflarni baholash va boshqarish usullari |
| | | Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam asoslari va harakatlar |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | Quyosh uskunalarini ekspluatatsiya qilish sohasida ish joyida xavfsizlik qoidalari va tartiblari |
| | | Og‘ir uskunalar va elektr tizimlari bilan xavfsiz ishlash qoidalari |
| | B1.03.3<br>Texnik hujjatlarni, hisobotlarni, materiallarning spetsifikatsiyalarini, joylashish rejalarini va elektr sxemalarni yuritish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Texnik hujjatlarni, hisobotlarni, materiallarning spetsifikatsiyalarini, qurilmalarning joylashish rejalarini va elektr sxemalarni tayyorlash |
| | | 2. Belgilangan tartiblar va me’yoriy talablarga muvofiq hujjatlarni ro‘yxatga olish va arxivlash |
| | | 3. Texnik hujjatlar bilan tanishish imkoniyatini ta’minlash va o‘zgartirishlar kiritilganda ma’lumotlar yangilanishini ta’minlash |
| | | 4. Texnik hujjatlarning belgilangan standartlar, me’yorlar va texnik shartlarga muvofiqligini nazorat qilish |
| | | 5. Hujjatlar aylanish jarayonini unifikatsiyalash va soddalashtirish uchun hujjatlar shablonlarini ishlab chiqish va yangilash |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Texnik tahrirlash va hujjatlarni tayyorlash |
| | | Hujjatlar aylanishini tashkil etish va yuritish, arxivlash va hujjatlardan foydalanish |
| | | Texnik ma’lumotlar va axborotlar bilan ishlash |
| | | Ish natijalarini namoyish qilish uchun texnik hujjatlar va taqdimotlarni tayyorlash |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Energetika sohasida texnik hujjatlarning standartlari va normalari |
| | | Quyosh energetikasida qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va materiallar |
| | | Texnik hujjatlarni formatlash, tuzilishi va mazmuniga qo‘yiladigan talablar |
| | | Hujjatlarni boshqarish va arxivlash tamoyillari |
| | | Energetikada texnik hujjatlar masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik va me’yoriy hujjatlar |
| | **Mas’uliyat va mustaqillik:** | O‘z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik |

| | | |
|---|---|---|
| | | Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish |
